ISSN: 2992-8974

# ALFRAGANUS

xalqaro ilmiy jurnal

2 (11). 2024

## BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI

1 O'TA QASHSHOQLIKKA BARHAM BERISH



Iqtisodiyot | Falsafa | Farmatsevtika

Экономика | Философия | Фармацевтика

Economics | Philosophy | Pharmaceuticals

**Bosh muharrir:**
**Egamberdiyev Farmonqul Tursunqulovich -** ALFRAGANUS UNIVERSITY rektorining maslahatchisi, professor, iqtisodiyot fanlari doktori
**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Muminov Nozim Gaffarovich** - ALFRAGANUS UNIVERSITY prorektori, professor, iqtisodiyot fanlari nomzodi
**Mas'ul kotib:**
**Xoʻjayev Moʻminjon Isoxonovich** - Alfraganus Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi rahbari, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**Tahririyat kengashi:**
**Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich** – O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, Toshkent shahridagi G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti filiali rektori
**Sadullayev Azimboy Sadullayevich** – O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, fizika–matematika fanlari doktori, Mirzo Ulugʻbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti «Matematik analiz» kafedrasi mudiri
**Vaxabov Abduraxim Vasikovich** – Mirzo Ulugʻbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
**Murtazayeva Raxbar Xamidovna** – Mirzo Ulugʻbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, tarix fanlari doktori
**Maxmudov Muhammadismoil Muxitdinovich** – ALFRAGANUS UNIVERSITY rektori, PhD, dotsent
**Ismailov Azizbek Ruzimahammatovich** – ALFRAGANUS UNIVERSITY ta'sischisi, PhD, dotsent
**Paxrutdinov Shukritdin Ilyosovich** – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga oʻrgatish milliy–tadqiqot instituti professori, siyosiy fanlari doktori
**Alimbekov Adhambek Kamolovich** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori
**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich** – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori
**Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, falsafa fanlari doktori
**Muminov Kobiljan Kadirovich** – Mirzo Ulugʻbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori, fizika–matematika fanlari doktori
**Ahmadaliyev Yusupjon Ismoilovich** – Fargʻona davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori, geografiya fanlari doktori, professor
**Rahmonov Rasul Nematovich** – Toshkent shahridagi Webster universiteti ijrochi direktori, PhD, professor
**Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich** – Mirzo Ulugʻbek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Umarov Baxriddin Mengboyevich** – Alfraganus universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori
**Egamberdiyeva Yulduz Xamroqul qizi** – O'zbekiston Milliy universiteti, PhD, Tabiiy geografiya kafedrasi dotsent v.b.
**Qaxxorova Matluba Mannofovna** – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori
**G'aniyev Baxodirjon Sadikjonovich** – Farg'ona davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori
**Xalmirzayev Axmadjon Axunovich** – Mirzo Ulugʻbek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
**Siddikov Ilyosjon Baxromovich** – Farg'ona davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori
**Islomov Bozor Islomovich** - O'zbekiston milliy universiteti, Fizika-matematika fanlari doktori, professor
**Gulyamov Shuxrat Manapovich** - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "IChJA" kafedrasi professori, texnika fanlar doktori.
**Abdullayev Obidjon Xayrullaevich** - ALFRAGANUS UNIVERSITY "Matematika va fizika" kafedrasi mudiri, fiizika-matematika fanlari doktori, dotsent
**Saydaliyeva Feruza Xayriddinovna** - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
**Begimov O'ktam Ibrogimovich** - ALFRAGANUS UNIVERSITY "Raqamli texnologiyalar" kafedrasi mudiri, texnika fanlar bo'yicha falsafa doktori PhD
**Shukurov Yorkin Alidjanovich** – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi oʻqituvchisi
**Raximjanov Masrur Nugmanovich** – PhD, ALFRAGANUS UNIVERSITY katta oʻqituvchisi

**Tahririyatning xalqaro kengashi:**
**Birol Merkan** – Najmitdin Erbokan nomidagi davlat universiteti, Siyosiy fanlar fakulteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi professori, fan doktori (Turkiya Respublikasi)
**Altunina Varvara Viktorovna** – I.Kant nomidagi Baltika Federal universiteti huzuridagi Oliy biznes va tadbirkorlik maktabi direktori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)
**Aliyeva Inobbat Akramovna** – I.Kant nomidagi Baltika Federal universiteti huzuridagi Boshqaruv va hududiy rivojlanish Institutining talaba salohiyatini rivojlanishi ta'lim ilmiy klasteri boshligʻining muovini, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)
**Raximshikova Mavluda Karimjanovna** – Muxtor Auezov nomidagi Janubiy Qozogʻiston universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi (Qozogʻiston)
**Zenkova Inga Vladimirovna** – Yevfrosiniya Polotskaya nomidagi Polotsk davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi mudiri, PhD, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Chief editor:**
**Egamberdiev Farmonkul -** Rector is adviser, Professor, Doctor of Economics
**Deputy of chief editor:**
**Muminov Nozim** - ALFRAGANUS UNIVERSITY vice–rector, professor, candidate of economic sciences
**Executive Secretary:**
**Khujayev Muminjon –** Head of Alfraganus International Research Center, Doctor of Philosophy sciences (DSc), Associate Professor

**Editorial board:**
**Abdurahmonov Qalandar** – academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, doctor of economic sciences, G.V. in Tashkent. Rector of the branch of Plekhanov Russian University of Economics
**Sadullayev Azimboy** – academician of the academy of Sciences of Uzbekistan, doctor of physical and mathematical sciences (DSc), head of the «Mathematical Analysis» department of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
**Vakhabov Abdurahim** – professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, doctor of economics
**Murtazaeva Rakhbar** – professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, doctor of history
**Makhmudov Muhammadismoil** – Rector of ALFRAGANUS UNIVERSITY, PhD, associate professor
**Ismailov Azizbek** – founder of ALFRAGANUS UNIVERSITY, PhD, associate professor
**Pakhrutdinov Shukritdin** – Professor of the National Research Institute for Professional Development of Pedagogues and Training in New Methods named after A. Avloni, Doctor of Political Sciences
**Alimbekov Adhambek** – professor of Tashkent State University of Oriental Studies, doctor of philology
**Jabbarov Nurboy** – Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, doctor of philology
**Saifnazarov Ismail** – professor of Tashkent State University of Economics, doctor of philosophy
**Muminov Kobiljan** – professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, doctor of physical and mathematical sciences
**Ahmadaliyev Yusupjon** – director of the regional center for retraining and improving the qualifications of pedagogical personnel at Fergana State University, doctor of geographical sciences (D.Sc.), professor
**Rakhmonov Rasul** – Executive director, Webster University in Tashkent, PhD, professor
**Mambetjanov Qahramon** – professor, doctor of economic sciences (D.Sc.), head of the department of economic theory at the National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
**Umarov Baxriddin** – doctor of psychological sciences (D.Sc.), professor of the department of Pedagogy and Psychology, Oriental University
**Egamberdiyeva Yulduz** – National University of Uzbekistan, PhD, Assistant professor of the department of Physical geography
**Qaxxorova Matluba** – doctor of philosophy (D.Sc.), professor of the department of international relations and social sciences at the International Islamic Academy of Uzbekistan
**G'aniyev Baxodirjon** – professor of Fergana State University, doctor of philosophy
**Khalmirzaev Akhmadjon** – associate professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, candidate of geography
**Siddikov Ilyosjon -** professor of Fergana State University, doctor of philosophy
**Islomov Bozor** - Doctor of physical-mathematical Sciences, professor. National university of Uzbekistan
**Gulyamov Shukhrat** - Tashkent State Technical University, Doctor of Technical Sciences, Professor
**Abdullaev Obidjon** - Head ofthe department of "Mathematics and physics" ALFRAGANUS UNIVERSITY, associate professor. DSc
**Saydaliyeva Feruza** - PhD. Associate professor, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
**Begimov Uktam** - PhD. Alfraganus University. Head of the Department of Digital Technologies
**Shukurov Yorkin** – a teacher of the International Islamic Academy of Uzbekistan
**Rakhimjanov Masrur** – PhD, senior teacher at ALFRAGANUS UNIVERSITY

**International Board of Editors:**
**Birol Merkan** – Professor, Doctor of Science, Faculty of Political Sciences, Department of Economic Theory, State University named after Najmitdin Erbokan (Republic of Turkey)
**Altunina Varvara** – Director of the Higher School of Business and Entrepreneurship, Immanuel Kant Baltic Federal University, Candidate of Sciences (Economics), Doctor of Sciences (Pedagogy), Professor (Russian Federation)
**Alieva Inobbat** – Deputy Head of Student Potential Development at the Institute of Management and Regional Development, Immanuel Kant Baltic Federal University, Candidate of Sciences (Economics), Associate Professor (Russian Federation)
**Rakhimshikova Mavluda** – associate professor of South Kazakhstan University named after Mukhtar Auezov, candidate of philosophy (Kazakhstan)
**Ziankova Inha** – Head of the Economics Department of the Euphrosyne Polotskaya State University of Polotsk, PhD (Republic of Belarus)

# MUNDARIJA

**MUTALOV A.**
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI 3

**TUYCHIYEV Z.N.**
O'ZBEK XALQI MADANIYATIDA SO'FIYLIK G'OYASINING ZAMONAVIY IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI 10

**АЗИЗОВА С.Х.**
ҲОЗИРГИ ЗАМОН МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ТАДҚИҚОТЛАР ТАҲЛИЛИ 16

**ABRAYEVA Z.Ch.**
HAPLOPHYLLUM PERFORATUM O'SIMLIGI ALKALOIDLARI 23

**СТЕПАНОВА О.И.**
ПРИМЕНЕНИЕ ЛОГИЧЕСКИХ ЗАКОНОВ И ПРИНЦИПОВ В «КАНОНЕ ВРАЧЕБНОЙ НАУКИ» АБУ АЛИ ИБН-СИНО 30

**ЗАХИРОВА Г.М.**
ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ БЎЙИЧА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ТАДҚИҚИ ВА ТАҲЛИЛИ 38

**УМАРОВ О.О.**
ЯШИРИН ИҚТИСОДИЁТНИНГ МОҲИЯТИ, ТАБИАТИ ВА УНИНГ УЛУШИНИ КАМАЙТИРИШ БОРАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ТИЗИМЛИ ТАҲЛИЛИ 47

**MASHARIPOVA G.K.**
ABU RAYHON BERUNIYNINH TABIIY-ILMIY, IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARINING XORIJDA O`RGANILISHI 56

**KURBANOV X.**
YOSHLAR ONGIDA MILLIY MADANIY MEROSNI RIVOJLANTIRISHGA MUNOSABAT (ijtimoiy-falsafiy tahlil) 64

**TUROBJANOV M.M.**
YASHIL IQTISODIYOT VA TABIIY EKOTIZIMLAR 71

**ABDULLAYEVA I.D.**
MIGRATSIYA: RAQOBATBARDOSHLIK VA IMKONIYATLAR 78

**NURMATOV B.A.**
SAYFIDDIN QUTUZ MEROSINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI VA VATANPARVARLIK QADRIYATLARI TIZIMIDA TUTGAN O'RNI 83

***Abduazim MUTALOV***
*professor of the Institute*
*International School of Finance*
*Technology and Science, e-mail:*
*mutalovabduazim@yandex.com.*
*ORCID: 0009-0005-0654-1048*

# O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi orqali ilgari bo'lmagan tadbirkorlikning paydo bo'lishi, uning afzalliklari, rivojlanish bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Alohida e'tibor kichik biznes va yakka tadbirkorlikni rivojlantishning xozirgi paytda paydo bo'lgan muammolari va ularni yechishga qaratilgan ilmiy takliflar tavsiya etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik, biznes, kriteriy, byudjet, soliqlar, yalpi ichki maxsulot, bozor iqtisodiyoti, aylanma (oborot).

# ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация**

В статье рассматриваются вопросы возникновения и становления предпринимательства в результате приобретения политической независимости и перехода экономики Узбекистана на рыночные отношения, его преимущества и этапы развития. Отдельно рассмотрены проблемы, появившиеся в последние годы в развитии самой прогрессивной формой предпринимательства - малым и индивидуальным предпринимательством и даны обоснованные предложения по их решению.

**Ключевые слова:** Предпринимательство, бизнес, критерий, налоги, бюджет, валовый внутренний продукт, рыночная экономика, оборот и другие.

# PROBLEMS OF ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

**Abstract**

This article analyzes advantages and stages of development of enterpreneurship, which was preveously eliminated as a result of the transition of country's economy to market relations as a result of Uzbekistan's political Independence. Moreover, special attention is paid to the current problems of developing small business and were given individual enterpreneurship and scientific proposals for solving them.

**Keywords:** Enterprenership, business, criteria, budget, taxes, gross domestic product, market economy, turnover.

**Kirish.** O'zbekicton 1991 yilda xalqimiz uzoq yillar orziqib kutgan siyosiy mustaqillikka erishdi, bu esa mamlakatimizga mustaqil "iqtisodiy siyosat" yuritish imkonini berdi va shu xuquqdan foydalanib o'z iqtisodiyotini ilgarigi ma'muriy-buyruqbozlik usulidan bozor munosabatlariga o'tkazdi. Natijada mamlakatimiz monoukladli iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan ko'p ukladli iqtisodiyotga, ya'ni turli xil mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan tadbirkorlikning turli shakl va maqomga ega bo'lgan subyektlari uchun yuridik shaxs tashkil etib yoki tashkil etmagan holda faoliyat yuritish imkoniyati paydo bo'ldi.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishlari uchun mamlakatimizda qisqa muddatlarda ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tegishli qonunchilik asoslari ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etildi, ammo oxirgi paytda qonunchilik xujjatlarining ayrimlarini amaliyotga tatbiq etish tadbirkorlikning rivojlanishiga olib kelmasdan aksincha ta'sir ko'rsatayotir. Masalan, 2019 yilda kuchga kiritilgan "Soliqqa tortishni takomillashtirishning yangi Kontseptsiyasi"ga muvofiq, soliqlar iqtisodiyotning rivojlantirishni rag'batlantirish o'rniga, unga to'siq bo'lib qolmoqda.

**Adabiyotlar sharxi.** O'zbekiston Respublikasida xozirgi paytgacha tadbirkorlikni rivojlantirishning turli masalalari yetarli darajada o'rganib chiqilgan, ammo ayrim amaliyotga tatbiq qilingan qonunchilik xujjatlari rivojlanishini rag'batlantirish o'rniga to'siq bo'lish holatlarini ilmiy-tanqidiy o'rganishga bag'shlangan ilmiy asarlar chop etilmagan.

**Metodologiya va qo'llanilgan tadqiqot usullari.** Yangi Soliq konsepsiyasi amal qilayotgan sharoitda faoliyat yuritishning eng samarali shakli bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishish hamda samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynovchi soliqqa tortishning maviud muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadida maqola oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- amaldagi soliq Kontseptsiyasini tanqidiy tahlil qilish orqali uning kichik biznes va xuxusiy tadbirkorlikning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan jixatlarini aniqlab asoslab berish;

- kichik biznes va xuxusiy tadbirkorlikning byudjet daromad-larini shakllantirishdagi rolining pasayib borish tendentsiyalarining muammolarini aniqlab, ularni yechish yo'llarini asoslab berish;

- biznes subyektlariga maqom beruvchi kriteriylarni takomillash-tirish zaruratini asoslab berish.

Ushbu maqolada tadqiqot qi-lishning guruxlash, solishtirish va umumlashtirish statistik usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil.** O'zbekiston sharoitida "tadbirkor" o'zi kim degan savolga javob berar ekanmiz, O'zbekiston-ning "Tadbirkorlik faoliyatinining erkinligi garantiyalari to'g'risida"dagi qonunida "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonunchilikka rioya etib, o'z riski va o'z mulkiy javobgarligi asosida **daromad (foyda) olish maqsadida** amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir",- deb ko'rsatilganbni keltirib o'tmoqchimiz.

Ammo, foydali faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs xar doim ham tadbirkor bo'lavermaydi. Masalan, qishloq joylarda yashovchi honadonlarda oilaning onasi xar kuni ertalab tandirda non yopishi va shu yopilgan nondan ikki hil maqsadda foydalanishi mumkin:

- agar oila a'zolari bilan birgalikda ertalab yopilgan issiq non bilan nonushta qilishsa, onangiz tadbirkor xisoblanmaydi;

- agar shu nonning bir qismini yoki hammasini bozorga olb chiqib sotsa, u tadbirkor hisoblanadi, chunki uning maqsadi foyda olishdir.

Endi "tadbirkorlik" va "biznes" tushunchalari orasidgi bog'liqlikni ko'rib chiqadigan bo'lsak, "Biznes" inglizcha so'z bo'lib "faoliyat", "ish" tushunchalarini bildiradi. Bozor iqtisodiyoti rvojlanishining xozrgi bosqichida "biznes" va "tadbirkorlik" so'zlari sinonim so'zlarga aylanib qolgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biznes - o'z mablag'lari yoki qarzga olingan mablag'lar xisobiga o'z riski va o'z mulkiy javobgarligi asosida foyda olishga va o'z ishini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuskorlik bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatidir, deb aytish mumkin.

Sobiq Sovet Ittifoqida iqtisodiyotni boshqarishning "ma'muriy-buyruqbozlik" usuli xukmron edi. KPSS Markaziy Qo'miasi tomonidan mamlakatni rivojlantirishning Direktivalari ishlab chilardi va kontrol topshiriqlar sifatida ittifoqdosh respublikalarga ijro uchun tarqatilardi. Direktivani bajarish jarayonida bozorda shu maxsulotga talab umuman yo'q bo'lsa ham, uni ishlab chiqarish davom ettirilaberar edi. Natijada 1991 yilda sobiq SSSR bo'yicha hech kimga kerak bolmagan 475 mlrd rubllik (o'sha paytda 1 dollar 60

tiyin edi) maxsulotlar bazalar, omborlar va magazinlar peshtaxtalarida chang bosib yotib qolgan edi.

O'sha davrda mamlakatimizda 2 hil soliq, ya'ni 13 foizlik stavkada to'lanadigan jismoniy shaxslar daromad solig'i va 45 foizlik stavkada to'lanadigan oborot solig'i to'lanar edi va axamiyatli joyi-uning deyarli teng yarmi (22%) Ittifoq byudjetiga yuborilar edi, xozir esa to'laligicha mamlakatimiz ixtiyorida qoladi.

Bozor iqtisodi sharoitiga o'tilgach, iqtisodiyotning barcha mulkchilik shakllarida teng xuquqlilik asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga keng imkoniyatlar berildi. Natijada xar bir tadbirkor bozorda talab katta bo'lgan maxsulot turini ishlab chiqarishga xarakat qiladi.

Mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab mamlakatimizni jadal rivojlantirishning samarali yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha amalga oshirilgan xarakatlar natijasida yakka tadbirkorlik va kichik biznesni jadal rivojlantirish yo'li tanlab olindi, chunki ular quyidagi afzalliklarga egadir:

- "Talab va taklif" qonuniga rioya qilib, bozorning oxirgi paytda paydo bo'ladigan talablariga tez va aniq moslasha oladi;

- maxalliy va ikkilamchi xomashyodan maksimal foydalanib bozorni turli-tuman "mayda-chuyda" ro'zg'or uchun zaruriy maxsulotlar bilan ta'minlaydilar;

- kichik biznes subyektlarini xarqanday axoli punktlarida joylashtirish mumkin, chunki u ko'p ishchi kuchi talab qilmaydi;

- ularni boshqarish oson;

- tez muddatlarda va kam xarajatlar bilan yangi ish joylari yaratadilar;

- mamlakatimizda sog'lom raqobatni faollashtiridhga yordam beradi.

Kichik biznesning yuqori samaradorligini e'tiborga olib. Mamlakatimizda doimiy ravishda uni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora - tadbirlarni katta e'tibor bilan amalga oshlrib kelmoqda, natijada 2016 yilga kelib, kichik biznes va yakka tadbirkorlikning O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki maxsultidagi ulushi 56,2 foizga yetkazildi. Ammo, afsuski, oxirgi paytlarda gurkirab rivojlanayotgan kichik biznes va yakka tadbirkorlarning rivojlanish sur'atlari turli sabablar salbiy ta'siri natijasida keskin pasayib ketdi. Bu sabablar qatorida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2018 yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning Kontseptsiyasi to'g'risida"gi Farmonini amalga

oshirish jarayonida oldindan kutmagan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida yangi kuchli to'siq paydo bo'ldi.

Buni quyidagicha tushuntirish mumkin: Ma'lumki, biznesning yagona maqsadi - o'z faoliyatini uzluksiz rivojlantirib oladigan foydasi miqdorini surunkali oshirib borishdir, ammo xozir amalda bo'lgan Soliq Kontseptsiyasida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator samarali choralar bilan birga, xal qiluvchi axamiyatga ega bo'lgan, zudlik bilan tuzatish lozim bo'lgan muxim printsipial to'siqlar vujudga keltirilgan. Masalan unda:

- yirik hamda kichik biznes subyektlarining soliq yukining miqdorini tenglashtirish talab etiladi va bu hol maxalliy investorlarning kichik biznesga hamda yakka tadbirkorlikka qiziqishlarini susaytiradi;

- yana bir ahamiyati kattaroq to'siq - bu qollaniladigan soliqlarning biznesning maqomiga (yirik, o'rta yoki kichik) qarab emas, balki sotilgan maxsulotning yillik aylanmasi miqdoriga bog'liq qilib belgilanganligidir, ya'ni u ishlab chiqarishni tobora rivojlantirib borishini rag'batlantirishga emas, balki "tormozlash" ga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, kichik biznes subyektlari o'z ishlab chiqarishlari xajmini doimiy ko'paytirib borishni xoxlaydilar, ammo ishlab chiqarishning xar qanday ko'payishi soliqqa tortishning bir tizimidan soliq yuki ko'proq bo'lgan va xisob-kitob ishlari murakkabroq bo'lgan keyingi tizimiga o'tishni ko'zda tutadi, ya'ni faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari aylanma (oboroti) summalari miqdori oshishi natijasida miqyosi (razmeri) va ishlovchilari soni oshmasa ham "kichik biznes subyekti" maqomini yo'qotadi. Natijada tadbirkorlik sub'yektlari soliq yukini oshirmaslik maqsadida o'z aylanmalari summasining xaqiqiy miqdorini noqonuniy yo'llar bilan kam ko'rsatishga xarakat qilishga majbur bo'lmoqdalar:

- aylanmaning bir qismini keyingi xisobot davriga ko'chirishga;

- maxsulot sotishdan tushadigan aylanmaning kassa apparati yoki bank orqali rasmiylashtirmaslik (naqd pulga sotish)ka;

- kichik korxona tasischisi agar xozir qat'iy belgilangan soliq to'lab turgan korxonasi quvvati 1 milliard so'mdan oshib ketsa, uni quvvati 1 milliarddan kam bo'lgan birnecha korxonalarga parchalab tashlash yo'li bilan yashirishga majbur bo'lmoqda. Amalda shunday usul qo'llanilganligini misol orqali isbotlab berishimiz mumkin. Statistik ma'lumotga ko'ra yangi Soliq Kontseptsiyasi kuchga kirgan 2019 yilda O'zbekistonda 93 ming dona, ya'ni oldingi yilga nisbatan 2 baravar

ko'p yangi kichik biznes subyektlari barpo etilgan. Ammo, ma'lumotda keltirilgan yangi korxonalarnung ko'pchiligi yangidan qurilgan bo'lmay, balki soliqdan qochish maqsadida bitta tasischi-tadbirkor ixtiyorida qolgan holda, ishlab turgan korxonalarni parchalab tashlash natijasida paydo bo'lgan. Bu fikrni isbotlash uchun quyidagi raqamlarni keltjrishimiz mumkin. Yangi Soliq Kontseptsiyasi kuchga kirmagan 2016 yilda kichik va yakka tadbirkorlikning O'zbekiston yalpi ichki maxsulotidagi ulushi 56,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda 54,2 foizgacha pasayib ketgan, ya'ni kichik biznes subyektlari sonining deyarli 2 baravar o'sishi, ularning yalpi icki maxsulotdagi ulushini tegishli ravishda o'sishiga olib kelmadi, balki o'sish o'rniga 2,7 foizga pasayishiga olib keldi. Shu bilan birga, 2016 yilda kichik va yakka tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiotda barcha ishlovchilarning 77 foizini tashkil etardi, ishlab chiqarilgan barcha sanoat maxsulotining uchdan bir qismi va qishloq xo'jalik maxsulotimimg 98 foizini ishlab chiqargan edi. 2019 yilda soxada ishlovchilar soni 2016 yilga nisbatan deyarli o'zgarmay qolgan, ammo yalpi ichki maxsulotidagi ulushi 2,7 foizga hasaygan. Bu ko'rsatkich yuqorida keltirilgan fikrimizning to'g'riligini isbotlab turibdi.

**Xulosa.** Agar faoliyat yuritishning eng samarali shakli bo'lgan kichik va yakka tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish orqali mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishni xoxlar ekanmiz, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- maxalliy investorlarning o'z mablag'larini kichik va yakka tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish va kengaytirish uchun investitsiyalarga sarflashlariga qiziqtirish maqsadida shu subyektlarning soliq yukini tenglashtirishga emas, balki kamaytirishga sharoit yaratilishi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarga "kichik biznes subyekti" maqomini

beruvchi kriteriy sifatida faqat bitta - "ishlovchilar soni" ko'rsatkichining o'zini qoldirib, ikkinchi ko'rsatkichni, ya'ni ishlab chiqarilgan "aylanma miqdori" ko'rsatkichini olib tashlash lozim, shunda kichik va yakka tadbirkorlik subyektlari doimiy ravishda oladigan foydalari miqdorini oshirib borish maqsadida o'z faoliyatlari miq'yosiini surunkali kengaytirib borishga, ya'ni xarqanday aylanmadan cheklovlarsiz rivojlanishga intiladi.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish iqtisodiyotimiz yuksalishini tezlashtirishga va axolimiz farovonligini oshirishga muxim asos bo'ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi - Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2018 yilda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirishning Kontseptsiyasi to’g’risida”gi Farmoni;
3. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma / U.To‘lakov, O.Maxmudov. 2021 yil, – 365 bet.
4. Налоговое право. Учебник (отв. ред. Е.Ю. Грачева, О.В. Болтинова) (3-е изд., перераб. и доп.). - "Проспект", 2020 г.
5. Современные проблемы теории земельного права России: монография (коллектив авторов; под общ. ред. д-ра юрид. наук, проф. А.П. Анисимова и д-ра юрид. наук, проф. А.Я. Рыженкова). - "Юстицинформ", 2024 г

## Axborot manbalari

6. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
7. www.mf.uz – O’zbekiston Moliya vazirligi rasmiy sayti.
8. www.soliq.uz– O’zbekistonDavlat Soliq qo’mitasi rasmiy sayti
9. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika agentligining rasmiy sayti.

***TUYCHIYEV***
***Zafar Nardanqulovich,***
*Farg'ona davlat universiteti*
*mustaqil tadqiqotchisi*

## O'ZBEK XALQI MADANIYATIDA SO'FIYLIK G'OYASINING ZAMONAVIY IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada so'fiylik g'oyasi orqali O'zbek xalq madaniyatida insoni ma'naviy kamolotga erishish yollari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy tamoyillari xalqning ma'naviy hayotida va milliy madaniyatida chuqur o'rin olganligiga munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Modernizm, transformatsiyasi, sekulyarizm, aspekt, sadoqat, zohidlik, tariqat, tasavvuf, zikr, komillik, ta'limot, ma'rifat.

## СОВРЕМЕННЫЕ СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ИДЕИ СУФИЗМА В КУЛЬТУРЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

**Аннотация**

В данной статье представлены мнения о путях достижения духовной зрелости в узбекской народной культуре через идею суфизма. Высказывалось также, что его социально-философские и нравственные принципы имеют глубокое место в духовной жизни и национальной культуре народа.

**Ключевые слова:** модернизм, трансформация, секуляризм, аспект, преданность, аскетизм, секта, мистика, воспоминание, совершенство, учение, просвещение.

## CONTEMPORARY SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE IDEA OF SUFISM IN THE CULTURE OF THE UZBEK PEOPLE

**Abstract**

This article presents opinions on the ways of achieving spiritual maturity in Uzbek folk culture through the idea of Sufism. It was also stated that its socio-philosophical and moral principles have a deep place in the spiritual life and national culture of the people.

**Key words:** modernism, transformation, secularism, aspect, devotion, asceticism, sect, mysticism, remembrance, perfection, teaching, enlightenment.

**Kirish (Introduction).** O‘zbekiston xalqining madaniyatida so‘fiylik g‘oyasining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi mavzusi, butun tarixiy davrlarda jamiyatning ma’naviy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishini tushunishga yordam beradi. So‘fiylik, odatda, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar bilan birgalikda shakllangan va jamiyatning ma’naviy hayotida muhim rol o‘ynagan.

**- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).**

1. So‘fiylik g‘oyalari o‘zining ma’naviy qiymatlari orqali ijtimoiy hayotda ichki tasvirni va odamlar orasidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi. So‘fiylik, ko‘pincha, insonlarning ma’naviy rivojlanishi va ichki kamolotiga yordam berishga qaratiladi. So‘fiylik g‘oyalari jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular, odatda, insonlarning bir-biri bilan yaqin va samimiy munosabatlarni o‘rnatish, ziddiyatlarni tinchlik yo‘li bilan hal qilishga ko‘maklashadi.

2. So‘fiylik madaniyatning bir qismi bo‘lgan va o‘zining o‘zgacha, noyob madaniy an’analarini va ijtimoiy amallarni saqlab qolgan. So‘fiylik g‘oyalarining transformatsiyasi, madaniy merosning qanday saqlanishini va o‘zgarishlarini kuzatish imkonini beradi. So‘fiylik g‘oyalari zamonning o‘zgarishlari va jamiyatdagi yangi ijtimoiy talablarga moslashishga intiladi. Bunday transformatsiya, g‘oyalarning zamon bilan qanday munosabatda bo‘lishini va ularning jamiyatga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

3. So‘fiylik g‘oyalarining ijtimoiy transformatsiyasida, ularning eski modellariga qarshilik ko‘rsatish va yangi ijtimoiy formatlarning paydo bo‘lishi mumkin. Bu o‘zgarishlar, jamiyatdagi yangi ijtimoiy standartlarning shakllanishini ko‘rsatadi. Ushbu ijtimoiy-falsafiy xulosalar, so‘fiylik g‘oyasining jamiyatdagi o‘rni va unga bo‘lgan munosabatlarni tushunishga yordam beradi.

4. So‘fiylik, u o‘z vaqtida Islomdagi ichki ma’naviy va ruhiy yo‘nalishlardan biri sifatida keng tarqalgan bo‘lsa-da, zamonaviy globallashuv va sekulyarizmning ta’siri bilan ko‘plab o‘zgarishlarga duch kelgan. So‘fiylik, Islomning birinchi asrlarida paydo bo‘lgan bo‘lib, u axloqiy va ruhiy o‘zgarishlarga erishishga yo‘naltirilgan. So‘fiylikning maqsadi insonning ishtiyoq va intilishlarini o‘sish va ma’naviy kamolga yetkazishdir. So‘fiylik ta’limoti Islom jamiyatining ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutadi va uning

ta'limotlari, amallari va uslublari doimiy ravishda taraqqiy etgan.

5. Zamonaviylik va sekulyarizmning taraqqiyoti, dunyoviy yondoshuvlarning kuchayishi bilan birga, tasavvufning ijtimoiy va madaniy roli o'zgargan. Sekulyarizm, ya'ni din va davlatning ajratilishi, dunyoviy qarorlar qabul qilishda dinning ta'sirini cheklaydi. Bu, o'z navbatida, tasavvufning ijtimoiy pozitsiyasiga ham ta'sir ko'rsatgan. Sekulyarizmning taraqqiyoti natijasida so'fiylikning mazmun va amallari ko'pincha ko'ngildan chiqqan va ijtimoiy hayotdagi o'rni kamaygan.

6. Modernizmning ishlab chiqargan yangiliklari va globallashuv jarayonlari so'fiylik ta'limotlarini yangi konteksta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Islomdagi modernizatsiya, shariat va tasavvufning muammolari va ularning ijtimoiy rivojlanish bilan qanday muomalada bo'lishi mavjud. So'fiylik ta'limoti, aynan zamonaviy sharoitlarda, axloqiy va ma'naviy idoralarini mustahkamlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Islomning madaniy va ma'naviy jihatlarini qayta tiklash, so'fiylik va modernizm o'rtasidagi muvozanatni saqlash imkonini yaratadi. Ushbu nuqtalarni hisobga olib, so'fiylikning zamonaviy ijtimoiy va falsafiy mavqeini tahlil qilish mumkin. Sekulyarizm va modernizmning ta'siri bilan birga, so'fiylikning o'zgarishi va yangi shart-sharoitlarga moslashishi ijtimoiy hayotdagi ma'naviy va axloqiy masalalarga e'tiborni yanada oshirishga yordam beradi.

7. O'rta Osiyoda tasavvufning taraqqiyoti va O'zbekiston xalq madaniyatidagi o'rni juda muhim. Xoja Ubaydulloh Ahrorning "Alloh taolo menga pok shariatni yoyish va Islom millatini qo'llab-quvvatlashni iroda qildi" degan iborasi tasavvufning Islom shariatini yoyish va Islom dinini mustahkamlashga qaratilganligini ko'rsatadi. Buni shariat va tariqatning bir-biri bilan bog'liq ekanligini, ularning maqsadlari bir-biri bilan uyg'unligini ko'rsatadi.

8. Axloq so'zi insonning xulq-atvorini belgilaydi va Islom axloqining asosiy manbalari Qur'on va sunnatdir. Axloqdagi qadriyatlar insonning ma'naviy va ijtimoiy jihatdan yuksalishini ta'minlaydi. Islomda axloq va odobning muhimligi shundaki, ular insonning ichki dunyosi va tashqi munosabatlari o'rtasida muvofiqlikni ta'minlaydi. Odob so'zi, o'z navbatida, nafsning kamolotga yetganligini, uning intizomliligi va xayrda ekanligini ko'rsatadi. So'fiylikda odob va axloqning ahamiyati yuqori baholanadi. So'fiylar orasida "tasavvuf – xulqdir,

kimning go‘zal xulqi ziyoda bo‘lsa, tasavvufi ham ziyoda bo‘ladi” degan gap tartib qilingan. Bu tasavvufning axloqiy va ma’naviy kamolotga bo‘lgan munosabatini yaqqol ko‘rsatadi.

9. O‘rta Osiyoda tasavvuf madaniyatning bir qismi sifatida shakllangan. So‘fiylik rituallari, yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va axloqiy qadriyatlar bu madaniyatning asosiy elementlaridir. So‘fiylarning yozishlari va ta’limotlari odamlarning ma’naviy o‘sishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ular o‘z o‘rnida axloq va odobni mustahkamlash uchun turli usullar va ta’limotlar taklif qilishgan.

10. O‘rta Osiyoda tasavvufning taraqqiyoti va O‘zbekiston xalq madaniyatidagi o‘rni, shubhasiz, ijtimoiy va ma’naviy hayotda muhim rol o‘ynadi. Tasavvufning axloq va odobga bo‘lgan yondashuvi, odamlarning ma’naviy o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi va buning orqali Islom madaniyatiga hissa qo‘shadi. Bu munosabatlar xalqning ma’naviy va ijtimoiy hayotida ulug‘vor o‘rin tutadi.

11. So‘fiylik g‘oyalari, qonun-qoidalardan ko‘ra, insonning ruhiy va ma’naviy rivojlanishini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Zamonaviy ijtimoiy sharoitlarda bu g‘oyalar odamlarning ichki olamlarini tushunish va ma’naviy sabr-toqatni oshirishga yordam berishi mumkin. So‘fiylikda insonlarning bir-birlariga muhabbat va hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari ta’riflanadi. Bu g‘oya zamonaviy ijtimoiy muhitda ijtimoiy hamjihatlik va mo‘yinchilikni qo‘llab-quvvatlash uchun muhimdir.

12. So‘fiylik adolat va tinchlikni kuchaytirishga yordam beradi. Zamonaviy jamiyatda tenglik va adolatni ta’minlashda, shuningdek, ijtimoiy zo‘ravonlik va keraksiz qarashlarga qarshi turishda bu g‘oyalar ahamiyatli bo‘lishi mumkin.

13. So‘fiylik tabiat va uning elementlariga alohida e’tibor qaratadi. Zamonaviy ekologiya masalalarida tabiatga muhabbat va ehtiyotchilik ko‘rsatish kerakligi bo‘yicha so‘fiylikning ta’siri sezilarli bo‘lishi mumkin. So‘fiylik, shaxsiy ma’naviy rivojlanish bilan birga ijtimoiy mas’uliyatni ham ta’riflaydi.

**- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tasavvuf O‘rta Osiyoda milliy ma’naviyatni rivojlantirishda o‘ziga xos rol o‘ynagan. Bu jarayon nafaqat diniy, balki ijtimoiy hayotga ham chuqur ta’sir ko‘rsatgan. So‘fiylikdagi insoniy poklik va axloqiy tarbiya g‘oyalari milliy o‘zlikning ajralmas qismidir, chunki ular nafaqat shaxsga, balki jamiyatga ham ma’naviy yuksalish yo‘lini ko‘rsatgan. Tasavvuf

insoniyatning foniy hayotdan boqiy hayotga boʻlgan qarashini anglashga yordam bergan va bu gʻoyalar oʻzbek xalqining milliy qadriyatlari va oʻzligini shakllantirishda asosiy yoʻnalishlardan biriga aylangan. Shunday qilib, soʻfiylik gʻoyalari oʻzbek xalqining milliy oʻzligini shakllantirishda va maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega boʻlib, bu qadriyatlar hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tasavvufni sunniy tasavvuf va falsafiy tasavvufga ajratadi. U ochiq yozadi: "Hozirgi kunimizda bu masala bizning diyorimizda unut boʻlgan edi. Shuning uchun boshqa bir tortishuvli masalalar qatori vahdatul vujudni qayta maydonga chiqishini istamas edik. Men oʻzim bu masalani birovning esiga tushib qolishini aslo istamas edim. Bu masaladan xabardor birodarlarga ham uni qoʻzgʻalmaslik kerakligini aytib yurar edim" [1, 204].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Mujohida – nafsni mahv etishga qatʼiy intilish, tanga mashaqqatni ravo koʻrib, maʼnaviyat uchun jihod, yaʼni tangga kirish va gʻalaba qilish, demak, Manna shunday jiddu jahd, shiddatli ruhiy iztiroblarda keyin solik Haq jamolini mushohida eta boshlaydi, mushohida (koʻrish) esa oʻz navbatida gʻayb pardalarning ochilib, ilohiy sirlarining kashf etilishiga yoʻl ochadi – mukoshifa martabasi hosil boʻladi»[2, 30-31].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Soʻfiylik insonlar oʻrtasida bagʻrikenglik, mehr-shafqat va birdamlikka asoslangan. Bu esa oʻzbek jamiyatidagi ijtimoiy muvozanat va hamjihatlikka muhim hissa qoʻshgan. Milliy oʻzlikning bir qismi sifatida oʻzbek xalqining madaniyatidagi bagʻrikenglik tamoyili soʻfiylik gʻoyalaridan oziqlangan. Hazrati Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband kabi mashhur soʻfiylar oʻz asarlari orqali oʻzbek xalqining maʼnaviy kamoloti va axloqiy qadriyatlariga katta taʼsir koʻrsatgan.

Zamonaviy jamiyatda shaxsiy va ijtimoiy masʼuliyatni oshirishda bu gʻoyalar muhim rol oʻynashlari mumkin. Bu aspektlarni tahlil qilish, soʻfiylik gʻoyasining zamonaviy Oʻzbekistondagi ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1 Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2004. – 204-б.

2. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. Тошкент: Ёзувчи, 1996. 30-31-бет.

***АЗИЗОВА***
***Сайёра Хамидуллаевна***
*ALFRAGANUS UNIVERSITY*
*“Иқтисодиёт” кафедраси катта ўқитувчиси, e-mail: azizova.sayyora76@gmail.com.*
*ORCID: 0000-0002-8508-7648*

## Ҳозирги замон меҳнат муносабатларини ўрганиш бўйича амалга оширилган тадқиқотлар таҳлили.

Мақолада меҳнат бозорида амалга оширилган ислоҳотлар тадқиқ этилган изланишлар кенг қамровда таҳлил этилган. Айниқса, персонални бошқариш, инсон капитали, минтақаларда аҳоли бандлигини ошириш йўналишлари, бандликни оширишга қаратилган ислоҳотлар, ташқи миграцияни тартибга солиш масалалари батафсил ўрганиб чиқилган.

**Таянч иборалар:** меҳнат, меҳнат бозори, инсон капитали, бандлик, ички миграция, ташқи миграция.

## Анализ проведенных исследований по изучению современных трудовых отношений

В статье проанализированы исследования осуществленных реформ на рынке труда. Особенно подробно рассмотрены вопросы управления персоналом, человеческого капитала, направлений повышения занятости в регионах, реформы направленные на повышение занятости, регулирования внешней миграции.

**Ключевые слова:** труд, рынок труда, человеческий капитал, занятость, внутреняя миграция, внешняя миграция.

## Analysis of the conducted research on the study of modern labor relations

The article analyzes the studies of the implemented reforms in the labor market. The issues of personnel management, human capital, directions of increasing employment in the regions, reforms aimed at increasing employment, regulation of external migration are considered in particular detail.

**Key words**: labor, labor market, human capital, employment, internal migration, external migration.

**Кириш**. Меҳнат бозори ва, айниқса, унинг муҳим таркибий қисми ҳисобланган меҳнат муносабатлари тизими ўта мураккаб ва иқтисодиётнинг турли соҳалари билан узвий боғлиқ бўлган жабҳадир. Меҳнат муносабатларини таҳлил қилиш давомида ички ва ташқи миграция, пул ўтказмалари, минтақавий меҳнат бозорлари, ишчи кучи сифати каби масалаларни ўрганиш муҳимдир. XXI асрнинг бошида ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ортиб бораётган меҳнат муносабатлари дунёда миграция жараёнларини жадаллашуви бу борада ҳам тадқиқотларни ошиб боришига олиб келди. Охирги йилларда мамлакатимизда (бутун жаҳонда ҳам) олиб борилаётган ташқи миграцияни эркинлаштириш сиёсатини меҳнат бозорига жорий этилиши хусусиятларини тадқиқ этиш ва изланишлар олиб бориш аҳамияти тобора ошиб бормоқда.

**Методлар (Methods).** Илмий мақолани ёзиш жараёнида илмий тадқиқотни амалга оширишнинг тизимли таҳлил, тарихийлик ва мантиқийлик, индукция ва дедукция, анализ ва синтез, қиёсий ва селектив танлаб тадқиқ қилиш, монографик таҳлил ва гуруҳлаш усуллари қўлланилган. Шу билан бирга тадқиқотда меҳнат бозори, ундаги амалга оширилаётган ислоҳотлар бўйича изланишлар олиб борган бир неча олимларнинг илмий ишларини мажмуали ва тизимли таҳлили амалга оширилган.

**Муҳокама (Discussion).** Меҳнат бозори ва меҳнат муносабатлари бир неча асрлардан буён олимларнинг тадқиқот объекти сифатида хизмат қилиб келган. Шу сабабдан меҳнат иқтисодиётига бағишланган фундаментал адабиётлар[1] кўплаб ишлаб чиқилгандир. Меҳнат бозорини тадқиқ этиш билан бирга ижтимоий-меҳнат муносабатлари масалаларига ҳам алоҳида эътибор берган адабиётлар[2] мавжуд. Бозор муносабатлари

---

[1] Родионова, В. М. Экономика труда. — М.: Юрайт, 2021. — 432 с.; Меньшиков, В. С. Трудовая экономика: теория и практика. — СПб.: Питер, 2020. — 352 с.; Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти.Дарслик Т.”Фан”2019й 600 б; Холмуминов Ш. Мехнат бозори иқтисодиёти. Т. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси нашриёти. Ўқув қўлланма. Т. 2004—144 б; Толаметова З.А. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси Тошкент . Фан ва технология. 2017. 405.бет.

[2] Меликьян, Г. Г. Экономика труда и социально-трудовые отношения. — М.: Инфра-М, 2020. — 368 с.; Кибанов, А. Я. Экономика труда и социально-трудовые отношения. — М.: Проспект, 2018. — 416 с.

шароитида меҳнат бозорида персонални бошқаришни ўзига хос ижтимоий-психологик омилларини[3] ва шунга боғлиқ равишда инсон капиталини шаклланиши ва уни бошқариш масалаларини тадқиқ этиш[4] муҳим эканлигини таъкидлаб ўтиш жоиз деб ҳисоблаймиз.

Меҳнат бозорини замонавийлашиб бориши уни янги шарт-шароитларга мослашиб бориши[5], ушбу жараёнда янги салбий[6] ҳамда ижобий[7] омилларни мавжудлигини тақазо этади.

Меҳнат бозорида аҳолини иш билан бандлиги даражасини ошириш масалалари алоҳида ўрин тутиши маълум. Шу сабабдан бандлик сиёсатини амалга оширишда бу соҳада яхши натижаларга эришга мамлакатлар тажрибаларини[8] ўрганиш зарур. Бандликни оширишда ноанъанавий усуллардан фойдаланиш[9] кутилмаган даражада ижобий

---

3 Базаров, Т. Ю. Управление персоналом. Экономика труда. — М.: Юнити-Дана, 2019. — 512 с.

4 N. Muminov, O. Egamberdieva. MODERN ASPECTS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AS A METHOD FOR IMPROVING THE LABOR MARKET OF UZBEKISTAN. УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИКИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ. Электронный сборник статей IV Международной научно-практической online-конференции. (Новополоцк, 26 ноября 2020 г.). P.237-240.; Джуманова Р.Ф., Муминов Н.Г. Инсон капиталини ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини баҳолаш ва таҳлил қилиш усуллари. “Инсон капиталини ривожлантириш- миллий иқтисодиёт барқарорлиги омили” Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақола ва тезислар тўплами (2023 йил 3 май) – Т. ЎзМУ, 2023 – Б.237-241.

5 Рощин, С. Ю. "Гибкость рынка труда в России: тенденции и перспективы" // Журнал Новой экономической ассоциации, 2021. — №4. — С. 102–121.

6 Лукьянова, А. Л. "Социально-экономические факторы безработицы в России" // Проблемы прогнозирования, 2019. — №3. — С. 87–104.

7 Резник Г. А., Коробкова Н. А. "Самозанятость в ненаблюдаемой экономике и ее влияние на экономический рост: метаанализ" // Регионология, 2021. — № 4. — С. 794–819.

8 Жумақулов Ш.З. Аҳоли бандлигини тартибга солишнинг хорижий тажрибаси // Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар илмий-методологик ва илмий- услубий журнал ISSN 2181-7286 2022 йил №2 сон

9 Халилова Н.А. Аҳолининг бандлигини оширишда ҳунармандчилик соҳасини ривожлантириш // Хоразм маъмун академияси ахборотномаси 11/2-2022 йил. 125-129 бетлар; Жумақулов Ш.З. Ислоҳотларни жадаллаштириш даврида ноанъанавий бандлик шаклларини ривожлантириш муаммолари.// Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 2(2021)/ISSN 2181-1415. 530-542 бетлар. https://inscience.uz/index.php/socinov/issue/view/8

натижаларни бериши кузатилмоқда.

Меҳнат бозорини тараққий эттиришни замонавий йўналиши сифатида ундаги жараёнларни рақамлаштириш намоён бўлмоқда. Албатта бу борада мутахассислар ва олимларнинг ўз изланишлари[10] мавжуддир.

Меҳнат бозорини такомиллаштиришда ички ва ташқи миграция масалалари муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Минтақаларда бандлик масаларини ўрганилиши[11] ва уни ошириш муаммоларини ҳал қилиниши миграцион оқимларни тартибга солиш имконини беради.

Ўзбекистонда ташқи миграция йўналишларини тартибга солишда ривожланган мамлакатлар томонга бурилиш тенденциялари[12] кузатилмоқда. Бу жараён, албатта, мигрантларимиздан юқори салоҳият, катта тажриба ва кўникмаларни талаб этмоқда.

**Хулоса** қилиб айтиш мумкинки XXI асрнинг бошида Ўзбекистон Республикасида меҳнат муносабатларини такомиллаштириш бўйича ислоҳотлар муваффақиятли амалга оширилган ва бу борасида

---

[10] Григорьев, Л. М., Капелюшников, Р. И. "Рынок труда и занятость в условиях цифровой экономики" // Вопросы экономики, 2020. — №5. — С. 34–56.; Долгов, С. А., Кривенцова, И. В. "Влияние цифровизации на производительность труда" // Экономика и предпринимательство, 2022. — №6. — С. 45–67.; Mobilising Workers via Digital Means: Reinventing Trade Unions for the Digital Age. Brigid Trenerry, Samuel Chng, Yang Wang, Sun Sun Lim, and Peng Ho Oh. Singapore Labour Journal 2022 01:01, 6-19

[11] Nozim Muminov, Botir Nurmatov, Oydin Egamberdiyeva. Aspects for improving the regional mechanism for creating new job vacancies in the regions of Uzbekistan.// “Номарказлаштириш механизмларини ишлаб чиқиш маҳаллий бюджетларнинг даромадлар қисми барқарор ўсиши ва минтақаларни ижтиий ривожлантиришнинг омили сифатида” халқаро миқёсдаги илмий- амалий конференция материаллари тўплами. – Т., 2020. – Б. 303-307.; Муминов Нозим Гаффарович. Пути эффективного использования трудовых ресурсов и повышения занятости населения в регионах Республики Узбекистан// Современные технологии управления. ISSN 2226-9339. — №3 (96). Номер статьи: 9606. Дата публикации: 2021-11-01. Режим доступа: https://sovman.ru/article/9606/; Nozim G. MUMINOV, Gulrukh AVLOKULOVA. The Level of Employment of Labor Resources in the Regions of Uzbekistan. // Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. №5, 2021. Б.189-194.

[12] Х.М. Мамедов, Н.Г.Муминов, К.К.Мамбетжанов, Х.Э.Нормуродов. Квинтэссенция диверсификации современных миграционных процессов между Республиками Узбекистана и Южной Кореи. “Ўзбекистон ва Корея республикасидаги миграция: бугунги кун ҳолати ва муаммолари” халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 2023, С.55-72.

олимларнинг кўпгина тадқиқотлари мавжуд. Хусусан, персонални бошқариш, инсон капитали, минтақаларда аҳоли бандлигини ошириш йўналишлари, бандликни оширишга қаратилган ислоҳотлар, ташқи миграцияни тартибга солиш масалалари ва ушбу муаммоларни ўрганиш бўйича жаҳон тажрибалари чуқур таҳлил этилганлиги амалиётга жорий этилиш жараёнини соддалаштирди.

**Адабиётлар рўйхати:**


1. Родионова, В. М. Экономика труда. — М.: Юрайт, 2021. — 432 с.
2. Меньшиков, В. С. Трудовая экономика: теория и практика. — СПб.: Питер, 2020. — 352 с.
3. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти.Дарслик  Т.”Фан”2019й 600б
4. Холмуминов Ш. Мехнат бозори иқтисодиёти. Т. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси адабиёт жамғармаси  нашриёти. Ўқув қўлланма. Т. 2004—144 б
5. Толаметова З.А. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси Тошкент . Фан ва технология. 2017. 405.бет
6. Меликьян, Г. Г. Экономика труда и социально-трудовые отношения. — М.: Инфра-М, 2020. — 368 с.
7. Кибанов, А. Я. Экономика труда и социально-трудовые отношения. — М.: Проспект, 2018. — 416 с.
8. Базаров, Т. Ю. Управление персоналом. Экономика труда. — М.: Юнити-Дана, 2019. — 512 с.
1968–1997-yillar davomida O'zbekistonda o'tkazilib kelingan "Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarining Toshkent xalqaro kinofestivali" "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali nomi bilan qayta" tiklandi hamda 2021-yildan boshlab har yili sentyabr-oktyabr oylarida Toshkent shahrida [3] o'tkazilishi an'anaga aylandi.

Xalq amaliy san'atining zardo'zlik va zargarlik an'analarini rivojlantirish, ularning noyob namunalarini targ'ib etish, shuningdek, ushbu yo'nalishlarda o'zaro tajriba almashish orqali xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlash, madaniy-gumanitar aloqalarni kuchaytirish, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan kasbiy an'analar va hunarmandchilik maktablarini saqlash va qayta tiklash hamda mintaqaning turizm salohiyatini yanada oshirish maqsadida 2022-yildan boshlab har ikki yilda may oyida Buxoro shahrida Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivali hamda uning doirasida ilmiy-amaliy konferensiya, ko'rik-tanlov, taqdimot va ko'rgazmalar, teatrlashgan konsert-tomosha dasturlari, madaniy-ma'rifiy va targ'ibot-tashviqot tadbirlari[4] o'tkazildi.

Xalqimizning boy tarixi va madaniy merosini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, targ'ib qilish va boyitib borish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" hamda "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi, Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risida Konvensiya ratifikatsiya qilindi. Ushbu Konvensiya doirasida Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritildi. 2018–2023-yillarda moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, ilmiy tadqiq etish, targ'ib qilish va ulardan foydalanishni tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi loyihasini

ishlab chiqish bo‘yicha respublika komissiyasi[5] tasdiqlandi.

Shuningdek, an’anaviy va akademik musiqa va raqs san’atini rivojlantirish, bu sohada yoshlarni iqtidorlarini namoyon etishlariga imkoniyat yaratish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ushbu san’at turlarini targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston davlat filarmoniyasini akademik va xalq badiiy jamoalari direksiyalari, birlashmalari negizida Davlat filarmoniyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi hamda viloyatlardagi hududiy bo‘linmalari tashkil etildi.

Davlatning innovatsion siyosati natijasida madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini rivojlantirish, sohada faoliyat ko‘rsatayotgan fidoyitaqdirlash uchun O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali tashkil etildi.

Mumtoz san’atni rivojlantirish, asrlar qa’ridan bizgacha yetib kelgan noyob namunalarni yoshlarga yetkazish maqsadida islohotlar amalga oshirildi. Masalan, O‘zbek milliy maqom san’ati markazi va muzeyi tashkil etildi. Har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san’ati anjumani hamda Xalqaro baxshichilik san’ati festivalining o‘tkazilishi noyob merosimizning nufuzini jahon miqyosida oshirish yo‘lida muhim amaliy qadam bo‘ldi. Milliy ma’naviy qadriyatlarimizni e’zozlash, asrab-avaylash, rivojlantirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi”[6] qabul qilindi.

Xalqning qadimiy tarixi, hayot tarzi, urf-odat, an’ana va marosimlarini, milliy o‘zligini tarannum etuvchi baxshichilik san’ati asrlar qa’ridan kelayotgan sado singari insonni o‘ziga beixtiyor jalb etadi. Bebaho merosimiz namunalaridan biri bo‘lgan bu ko‘hna san’at turidan yoshlarimizni bahramand qilish, milliy o‘zligini anglashga, ruhiyatiga kuch bag‘ishlashida, buyuk ishlarga qodir xalq vakili sifatida ilhom olishga va ezgu ishlarga chorlaydi. Ushbu san’at turi islohotlar natijasida rivojlandi. Masalan, “Alpomish” dostonining ming yilligi keng nishonlangani, Termiz shahrida bu ulug‘ badiiy obida sharafiga, Samarqand shahrida atoqli baxshilarimiz xotirasiga

bag'ishlangan yodgorlik majmualari bunyod etilgani, davlatimiz tomonidan "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi" faxriy unvoni ta'sis qilinganini qayd etish lozim.

"Bugungi kunda Termiz shahrida baxshichilik maktabi, respublikamizdagi bolalar musiqa va san'at maktablarida folklor sinflari faoliyat ko'rsatmoqda. Yurtimizda ko'p tomlik "Qoraqalpoq folklori" to'plamlari chop etildi, 100 tomlik "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" majmuasi nashr etildi. Baxshi-shoirlar tomonidan ijro etilayotgan asarlarni yozib olish, ularni ilmiy o'rganish ishlari davom etmoqda. Yaqinda Termiz shahrida ilk bor o'tkazilgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivali xalqaro miqyosdagi yirik madaniy hodisa sifatida keng e'tirof etilgani alohida e'tiborga loyiq. Yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida Termiz shahrida davlat muassasasi shaklida Respublika Baxshichilik san'ati markazini hamda uning huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan "Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasi"[7] tashkil etildi.

Yoshlarni sifatli va mazmunli axborot bilan ta'minlash, milliy va jahon fundamental va zamonaviy bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlashda axborot-kutubxona faoliyati katta o'rin tutadi. Aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish borasida ilohotlar olib borildi.

2019–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi respublika axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlarini belgilovchi qarashlarning yagona va bir butun tizimini o'zida aks ettiradi. Aholining axborotga bo'lgan talabini qondirish uchun mamlakatning yirik axborot-kutubxona muassasalari virtual ma'lumotlar xizmatidan faol foydalanmoqda, madaniy hordiq va ma'rifiy faoliyatni rivojlantirmoqda. 2019–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi[8] tasdiqlandi.

2021-yil 21-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Madaniy faoliyat va madaniyat

tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-668-sonli qonuni[9] qabul qilindi. Ushbu qonun asosida yoshlarimizning madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularga madaniy xizmatlarni amalga oshirilishini ta’minlash, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularni yaxshilash, yosh iste’dodlarni o‘qitish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish kabi davlatning bu sohadagi yo‘nalishlari belgilangan. Shuningdek, yoshlar “madaniyat yutuqlaridan foydalanish va jamiyatning madaniy hayotida ishtirok etish, ijodiy jamoalar tarkibida yoki mustaqil ravishda, kasbiy yoki nokasbiy (havaskorlik) asosda ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish, o‘z ehtiyojlariga, manfaatlari va qobiliyatiga (imkoniyatlariga) muvofiq madaniy faoliyat yo‘nalishlarini erkin tanlash, qonunchilikda belgilangan tartibda madaniyat ob’ektlariga borish, Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari, axborot-kutubxona muassasalari hamda axborot-kutubxona resurslari, shuningdek arxiv hujjatlari bilan tanishishkabi huquqlarga egadirlar.

**Xulosa va tarliflar.** Milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin egallaydi. Quvonarlisi, yoshlarni maqom san’atiga qiziqishi kuchayib borayotganidir. Yoshlarni milliy qadimiy merosimizga bo‘lgan iliq munosabatini yanada rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, bu sohada ilmiy izlanishlarga yo‘l ochish davlat siyosatida muhim o‘rin egallab keldi.

Kino san’ati yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda, intellektual salohiyatini oshirishda, ularda insonparvarlik, vatanparvarlik hususiyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Xalq amaliy san’ati asrlar davomida shakllanib, sayqal topib, milliy qadriyatlarimiz namunasi sifatida islohotlar davrida yanada boyib borayotgan san’at turidir. Ushbu sohani rivojlantirish, yoshlarni jalb qilgan holda yanada boyitib, kelajak avlodga meros qoldirish maqsadida katta islohotlar amalga oshirildi.

## ADABIYOTLAR:


1. Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. 17.11.2017 йилдаги ПҚ-3391-сон.
2. “Кинематография соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш ҳамда соҳа вакилларининг ижодий фаолияти учун муносиб шароит яратиш тўғрисида”ги қарори. 2021 йил 13 март. ПҚ-5060-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тошкент халқаро кинофестивалини қайта тиклаш ва ўтказиш тўғрисида”ги қарори. 2021 йил 16 июнь 17 июнда кучга кирди. ПҚ-5151-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқаро зардўзлик ва заргарлик фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги қарори. ПҚ-5098-сон.
5. Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида. 16.01.2018 йилдаги Ф-5181-сон.
6. Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. 28.11.2018 йилдаги ПҚ-4038-сон.
7. Бахшичилик санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. 14.05.2019 йилдаги ПҚ-4320-сон.
8. Ўзбекистон Республикаси аҳолисига ахборот-кутубхона хизмати кўрсатишни янада такомиллаштириш тўғрисида. 07.06.2019 йилдаги ПҚ-4354-сон.
9. 2021 йил 21 январда Ўзбекистон Республикасининг “Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида”ги ЎРҚ-668-сон.

***TUROBJANOV***
***Murodjon Maxammadjanovich***
*Alfraganus university bosh mutaxassisi*
*e-mail: t_murodjon@mail.ru*
*ORCID: 0009-0005-3701-3184*

## YASHIL IQTISODIYOT VA TABIIY EKOTIZIMLAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tabiiy resurslar samaradorligi BRIKS mamlakatlarida 1990 yildan 2021 yilgacha moliyaviy rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, tadqiqot va ishlanmalar va globallashuv sharoitida yashil o'sishga ta'sir qiladimi yoki yo'qligini o'rganadi. So'nggi bir necha yil ichida tabiiy resurslar samaradorligi va yashil iqtisodiyot tobora ortib borayotganligi tahkik etilgan.

**Kalit so‘zlar:** tabbiy resurslar, yashil iqtisodiyot, barqaror urbanizatsiya, global barqarorlik, uglerod chiqindilari, qishloq xujaligida tabiiy ekotizim.

## ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И ЕСТЕСТВЕННЫЕ ЭКОСИСТЕМЫ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается, влияет ли эффективность использования природных ресурсов на зеленый рост в странах БРИКС в период с 1990 по 2021 год, принимая во внимание финансовое развитие, возобновляемые источники энергии, научные исследования и разработки, а также глобализацию. За последние несколько лет наблюдается рост исследований в области эффективности использования природных ресурсов и зеленой экономики.

**Ключевые слова:** природные ресурсы, зеленая экономика, устойчивая урбанизация, глобальная устойчивость, выбросы углерода, естественные экосистемы в сельском хозяйстве.

## GREEN ECONOMY AND NATURAL ECOSYSTEMS

**Annotation**. This paper examines whether natural resource efficiency affects green growth in the BRICS countries from 1990 to 2021, taking into account financial development, renewable energy, research and development, and globalization. It is found that natural resource efficiency and green economy have been increasing steadily in the past few years.

**Keywords:** natural resources, green economy, sustainable urbanization, global sustainability, carbon emissions, natural ecosystem in agriculture.

**Kirish.** Butun dunyo mamlakatlari tabiiy resurslardan samarali foydalanish va yashil iqtisodiyotda muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolarga yashil tashabbuslar uchun moliyalashtirishga cheklangan kirish, yetarlicha infratuzilma va texnologiyalar hamda iqtisodiy rivojlanish uchun raqobatdosh ustuvorlik kiradi. Natija yashil iqtisodiyotni rag'batlantirish uchun ko'p manfaatdor tomonlarning hamkorliklarini osonlashtirish uchun iste'mol va ishlab chiqarish modellarini barqaror o'zgartirish qo'llab-quvvatlanishini tushuntiradi. Bundan tashqari, yashil maydonlarning tavakkalchilik va daromadlilik profillari mavjud xususiy moliyalashtirish mexanizmlari bo'yicha an'anaviy tarmoqlardan farq qiladi. Butun dunyo mamlakatlaridagi siyosatchilarga yashil o‘sish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun tabiiy resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalari, yerdan barqaror foydalanish amaliyoti, barqaror urbanizatsiya va yashil texnologiyalarni qabul qilishni rag‘batlantirish taklif etiladi.

Yashil o'sish iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishni anglatadi, shu bilan birga butun hayot omon qolishi bog'liq bo'lgan ekotizim va resurslarni saqlab qoladi (Chen va boshq., 2023). Shaharlar yashil iqtisodiyot va global barqarorlik uchun resurslardan samaraliroq bo'lishi kerak. Iqtisodiy faoliyatga yaqinligi natijasida ular samaradorlik va texnologik innovatsiyalarni olib kelishi, resurslar va energiya sarfini kamaytirishi va iste'molchilarning tanlovi va barqarorligini oshirishi mumkin. Hukumatlar yashil iqtisodiyotdan barqaror sektorlarga, jumladan, toza texnologiyalar, sanoat, qayta tiklanadigan energiya, suv, transport, chiqindilarni boshqarish, yashil qurilish, barqaror qishloq xo‘jaligi va o‘rmon ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan siyosat, investitsiyalar va xarajatlarni shakllantirish va yo‘naltirish uchun foydalanishi mumkin. Yashil iqtisodiyot past uglerod chiqindilari, resurslar samaradorligi va ijtimoiy inklyuzivlik bilan tavsiflanadi: resurslar g'oyaning markaziy o'rinni egallaydi va ularni standart birliksiz o'lchash qiyin. Shunga qaramay, insoniyat harakatlarining iqlimga sezilarli ta'sirini baholash uchun atmosferaga chiqarilgan $CO_2$ emissiyasining bir tonna ekvivalenti mavjud. Iqlim o'zgarishi bo'yicha ilmiy munozaralarga kelsak, ushbu yagona umumiy til elementi va standarti modellarning paydo bo'lishiga hissa qo'shdi, bu mamlakatlar o'rtasida almashishi mumkin bo'lgan stsenariylar va ko'rsatmalar korpusiga olib keldi .

Yashil iqtisodiyot past uglerodli, resurslardan tejamkor va ijtimoiy inklyuziv sifatida tavsiflanadi. Yashil iqtisodiyotda ish bilan bandlik va daromadning o'sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, shuningdek, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo'qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda global miqyosda ekologik muammolarning keskinlashuvi va iqlim o’zgarishi sababli yashil iqtisodiyotga o’tish dolzarb masalaga aylandi. Yashil iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, balki tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni saqlashga yo’naltirilgan. Tabiiy ekotizimlar esa yashil iqtisodiyotning asosiy negizi bo’lib, inson va tabiat o’rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o’sishni ekologik barqarorlik bilan uyg’unlashtiruvchi iqtisodiy modeldir. Uning asosiy maqsadi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va atmosferaga zararli moddalar chiqarilishini qisqartirishdan iborat. Yashil iqtisodiyot faoliyati qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va chiqindilarni qayta ishlashga asoslangan.

Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Ekologik barqarorlik — tabiatga minimal zarar keltirishni ta’minlash.
- Iqtisodiy o’sish va ijtimoiy farovonlik — inson salomatligi va turmush sifatiga ijobiy ta’sir ko’rsatuvchi rivojlanish.
- Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish — qayta tiklanmaydigan resurslarni tejash va qayta tiklanadigan manbalardan foydalanish.
- Chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash — chiqindilarni minimallashtirish va ulardan qayta ishlab chiqarish maqsadida foydalanish.
- Iqlim o’zgarishini kamaytirish — uglerod izini qisqartirish va qayta tiklanadigan energiyadan keng foydalanish.

Ushbu yashil investitsiyalar maqsadli davlat xarajatlari, siyosat islohotlari va soliqqa tortish va targ'ibga solishdagi o'zgarishlar orqali faollashtirilishi va qo'llab-quvvatlanishi kerak. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit, tabiiy kapitalni muhim iqtisodiy aktiv va ijtimoiy manfaatlar manbai sifatida tushunadigan rivojlanish yo'lini targ'ib qiladi, ayniqsa turmushi tabiiy resurslarga bog'liq bo'lgan kambag'al odamlar uchun. Yashil

iqtisodiyot tushunchasi barqaror rivojlanishning oʻrnini bosmaydi, balki butun Osiyo va Tinch okeani mintaqasida iqtisodiyot, investitsiyalar, kapital va infratuzilma, bandlik va malakalarga hamda ijobiy ijtimoiy va ekologik natijalarga yangi e'tiborni yaratadi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlari yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida strategiyalar ishlab chiqib, ularni amaliyotga tadbiq etmoqda. Jumladan, Yevropa Ittifoqi yashil bitim orqali uglerod chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Barqaror rivojlanish uchun yashil iqtisodiyot, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish va resurslar samaradorligining o'rni: Barqaror iste'mol va ishlab chiqarish jarayonlar va mahsulotlarning butun hayoti davomida resurslarni iste'mol qilish, chiqindilarni ishlab chiqarish va chiqindilarni kamaytirish uchun ishlab chiqarish jarayonlari va iste'mol amaliyotlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lsa, Resurs samaradorligi jamiyatga resurslar va emissiya qiymatini kamaytirish va etkazib berish usullarini nazarda tutadi. ishlab chiqarilgan chiqindilar, mahsulot yoki xizmat birligi uchun. Yashil iqtisodiyot investitsiyalar, bandlik va malakalarga asosiy e'tibor qaratgan holda barqaror iqtisodiy o'sish uchun makroiqtisodiy yondashuvni ta'minlaydi.

Tabiiy ekotizimlar — bu yer, suv, havo va biologik xilma-xillikdan iborat murakkab tizimlar bo'lib, ular inson hayoti va iqtisodiyot uchun zarur resurslarni ta'minlaydi. Ekotizimlar iqlimni barqarorlashtirish, tuproq unumdorligini saqlash va suv zaxiralarini boshqarish kabi muhim xizmatlarni amalga oshiradi. Shuningdek, ular biologik xilma-xillikni saqlash va tabiatdagi ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy ekotizimlarni asrab-avaylash yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asosiy omildir. Inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun ekotizimlarni muhofaza qilish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tabiiy ekotizimlar — bu yer, suv, havo va biologik xilma-xillikdan iborat murakkab tizimlar bo'lib, ular inson hayoti va iqtisodiyot uchun zarur resurslarni ta'minlaydi. Ekotizimlar iqlimni barqarorlashtirish, tuproq unumdorligini saqlash va suv zaxiralarini boshqarish kabi muhim xizmatlarni amalga oshiradi. Shuningdek, ular biologik xilma-xillikni saqlash va tabiatdagi ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyot va tabiiy ekotizimlar o'zaro uzviy bog'liqdir. Yashil iqtisodiyotning samarali rivojlanishi tabiiy ekotizimlarning yaxlitligini saqlashga bog'liq. Quyidagi omillar ushbu bog'liqlikni ta'minlaydi:

Yashil iqtisodiyot va tabiiy ekotizimlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash nafaqat iqtisodiy barqarorlikka, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham xizmat qiladi. Bu bog'liqlikni mustahkamlash uchun iqtisodiy faoliyatni ekologik talablarga muvofiq ravishda tashkil etish zarur.

**Yashil iqtisodiyot bo'yicha joriy ishning uchta asosiy yo'nalishi:**

1) Mintaqaviy, submintaqaviy va milliy forumlar orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun makroiqtisodiy yondashuvni targ'ib qilish.

2) Yashil moliya, texnologiya va investitsiyalardan foydalanishga asosiy e'tiborni qaratgan holda Yashil iqtisodiyot yondashuvlarini namoyish qilish

3) Yashil iqtisodiyotga o'tishni qo'llab-quvvatlash uchun makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va asosiy oqimga kiritish nuqtai nazaridan mamlakatlarni qo'llab-quvvatlash

Yashil iqtisodiyotning asosiy yondashuvi qanday bo'lishidan qat'i nazar, u iqtisodiy va ekologik siyosatni iqtisodiy o'sishning yangi manbalari imkoniyatlarini ko'rsatadigan tarzda birlashtirish muhimligini ta'kidlaydi, shu bilan birga tabiiy aktivlarning sifati va miqdoriga barqaror bo'lmagan bosimni oldini oladi. Bu soliqlar, subsidiyalar va savdo sxemalari kabi iqtisodiy vositalardan tortib, tartibga solish siyosati, jumladan standartlarni belgilash, ixtiyoriy yondashuvlar va axborot bilan ta'minlash kabi iqtisodiy bo'lmagan chora-tadbirlargacha bo'lgan chora-tadbirlar aralashmasini o'z ichiga oladi.

Global tanazzuldan eng yomon ta'sirlangan mamlakatlar o'zlarining so'nggi baholarida yashil ish o'rinlari va o'sishni ta'kidlaydilar. Energetika sohasini qamrab oluvchi baholashlar keng tarqalgan bo'lib, qayta tiklanadigan energiya manbalari va energiya samaradorligiga qaratilgan. Bundan tashqari, birlamchi va qazib olish tarmoqlariga qaram bo'lgan mamlakatlar ham tabiiy resurslardan samarali foydalanishga e'tibor qaratishadi.

Samarali baholash milliy yoki mintaqaviy qarorlar qabul qilish jarayonining markazida yashil iqtisodiyot strategiyasini talab qiladi. Hozirgi vaqtda baholashlar muayyan, lekin umuman tor sohalarda, masalan, qayta tiklanadigan energiya ulushining ortishi, yashil davlat xaridlari yoki yashil ish o'rinlari bilan

bog'liq bo'lgan siyosat masalalarini hal qiladi. Umuman olganda, iqtisodiy siyosatni yuritish uchun baholashlar, hatto strategik xilma-xillik ham qanday qo'llanilishi aniq emas. Agar yashil iqtisodiyot mamlakatning ishlab chiqarish va iste'mol qilish, savdo qilish va boshqarish usullarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lsa, unda baholash iqtisodiy va siyosiy strategiyalarning chekkalarida emas, balki markazida bo'lishi kerak.

Bugungi kunda butun dunyoda o'tkazilib kelinayotgan konferensiyasining ikkinchi asosiy mavzusi - iqtisodiyotni yashillashtirish: atrof-muhitni iqtisodiy rivojlanishga moslashtirish. Ushbu maqolaning maqsadi ham yashil iqtisodiyot va resurslar samaradorligi bilan bog'liq baholashlarning hozirgi holatini ko'rib chiqishdir. Bu umumiy Yevropa va O'rta Osiyo davlatlari hisobotlari va baholash jarayonlari uchun asos yaratishga yordam beradi va atrof-muhitni yaxshilash uchun markaziy bo'lgan ushbu keng qamrovli tushunchalar doirasida mintaqada insonlarning tabiatga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishga va tabiatni asrashda barcha insonlar birdek mas'ul ekanligini tushunishda yordam beradi.

**Xulosa.** Yashil iqtisodiyot va tabiiy ekotizimlar o'rtasidagi integratsiya iqtisodiy rivojlanish bilan birgalikda ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi. Barqaror rivojlanishga erishish uchun yashil texnologiyalarni keng joriy qilish va tabiiy resurslarni asrab-avaylash muhim ahamiyatga ega. Inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlash barqaror kelajakning kafolatidir.

Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tish atrof-muhit muhofazasi bilan birgalikda ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu jarayonda yangi ish o'rinlari yaratilishi, aholining ekologik madaniyatini oshirish va innovatsion yechimlarning tadbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat siyosati, xususiy sektor ishtiroki va jamoatchilikning faol ishtiroki bilan yashil iqtisodiyotning amaliy rivojlanishiga erishish mumkin. Barqaror kelajak uchun tabiat va iqtisodiyot o'rtasidagi muvozanatni saqlash asosiy vazifadir.

Atrof-muhitni saqlab qolish va uning afzalliklaridan foydalanishni davom ettirish uchun biz atrof-muhitdan olinadigan material miqdori kamayishi kerak. Bunga erishish uchun mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilishni o'zgartirish kerak. Iqtisodiyotimizni yashillashtirish kerak. Yashil iqtisodiyot - bu jamiyat farovonligi va atrof-muhitni hisobga olgan holda mahsulot va xizmatlarni tanlaydigan iqtisodiyot. Ushbu atamaning bir nechta ta'riflari mavjud, ammo u

odatda ishlab chiqarish va iste'mol qiladigan iqtisodiyotni anglatadi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4-oktabrdagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477 Qarori.
2. Порфирьв Б.П.,”Зеленая” экономика: реалии, перспективы и пределы роста. - М. Карнеги, 2013.
3. Karimov S. “Yashil” iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 2021.
4. World Bank. The Role of Green Investments in Emerging Economies. Washington, D.C. 2023.
5. www.unep.org - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti

***ABDULLAYEVA***
***Iroda Daronovna***
*“Oila ava gender” ilmiy-tadqiqot*
*instituti tadqiqotchisi*
*e-mail:*
*abdullayevairoda78@gmail.com*
*ORCID: 0009-0006-4919-8419*

## MIGRATSIYA: RAQOBATBARDOSHLIK VA IMKONIYATLAR

**Annotasiya.** Migratsiya Raqobatbardoshlik va imkoniyatlarda qolish asosan qabul qiluvchi mamlakatning qonunlariga bog'liq. Bunda asosan ishsizlik soni ko’p bo’lgan mamlakatdan ko‘chib o‘tadigan mavsumiy xarakterga ega odamlarga bog’liq.

**Kalit so‘zlar.** muhojir, Rossiy, mamlakat, sayohat, moliyaviy, masofa, qonuniy, shartnoma.

## КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ И ВОЗМОЖНОСТИ МИГРАЦИИ

**Аннотация.** Конкурентоспособность иммигрантов и возможности остаться в стране во многом зависят от законов принимающей страны. В основном это связано с сезонной миграцией людей из стран с высоким уровнем безработицы.

**Ключевые слова.** иммигрант, русский, страна, путешествие, финансы, расстояние, юридический, контракт.

## MIGRATION COMPETITIVENESS AND OPPORTUNITIES

**Abstract.** Migration Competitiveness and staying in the opportunities largely depend on the laws of the receiving country. This mainly depends on seasonal people moving from a country with high unemployment.

**Keywords.** migrant, Russian, country, travel, financial, distance, legal, contract.

**KIRISH.** Raqobatbardoshlik va imkoniyatlarni oshirishga qaratilgan islohotlar, moliyalashtirish va davlat korxonalarini tanlab xususiylashtirish va qayta qurish davom etmoqda. Shunga qaramay, o'tish vaqt va vaqt talab etadi xususiy sektor hali ham juda kichik, ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasida.

Biz qishloq va shahar investitsion muhitini tan olamiz. Me'yoriy-huquqiy bazalar, soliq tizimlari, umumiy makroiqtisodiy asoslar va inson kapitali (ta'lim va o'qitish siyosati sog'liq) talab tomonida ko'plab aralashuvlar mehnat bozorining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur shartlardir [1].

So‘nggi besh yil davomida O‘zbekistonda yoshlar masalalari kun tartibiga birinchi o‘ringa qo‘yildi. Yoshlar hisobi mamlakat aholisining qariyb 60 foizini tashkil etadi, bu esa yoshlar masalalarini davlat siyosati darajasida hal etish imkonini beradi. Ustida oxirgi 5 yil davomida 77 ta qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlar samaradorligini baholash bo‘yicha qabul qilingan. yoshlarga oid butun siyosat, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining sentabrdagi “Yoshlarga oid siyosat to‘g‘risida”gi qonuni 14, 2016. 2017-yil 30-iyun kuni O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tuzildi, uning asosiy maqsadi qo‘llab-quvvatlashdan iborat va yoshlarning barcha tashabbuslarini amalga oshirish. 2021-yil O‘zbekistonda Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili deb e’lon qilindi. Bunda aholi salomatligini mustahkamlash va tegishli davlat dasturi amalga oshirildi 4yil. Yuqorida sanab o'tilgan qonun hujjatlari bir qator tuzilmalarni yaratishga asos bo'ldi,

Bundan ko‘zlangan maqsad yoshlarni har tomonlama barkamol, yuksak insonlar bo‘lib yetishishga rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat bilimli fuqarolar va o'z mamlakatining vatanparvarlari. Ular orasida: Yoshlar ishlari, madaniyat va Oliy Majlis Senatining Sport, Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar ishlari bo‘yicha komissiyasi, quyi va yuqori palatalar huzuridagi Yoshlar parlamentlari, Yoshlar masalalari agentligi, Yoshlar ittifoqi, Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti, Yoshlar akademiyasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida va boshqalar.

O‘zbekiston mehnat bozorida sezilarli bosimni boshdan kechirayotgan bozor iqtisodiyoti yo‘lida bormoqda va ish etishmasligi. So'nggi o'ttiz yillik mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonining ko'payishi va o'tish davri bilan tavsiflanadi bandlik tarkibida qishloq xo'jaligidan tashqari iqtisodiy faoliyat.

Ish o'rinlarini yaratish ko'rsatkichlari yuqori darajada emas mehnatga layoqatli aholining o'sishi. Ko'nikmalarning mos kelmasligi va past ta'lim darajasi muammo bo'lib qolmoqda professional ishchi kuchini talab qiladigan ish beruvchilar. O‘zbekistonning ishchi kuchi ishtiroki qoniqarli darajada, ammo tashvishli gender farqlari va eksklyuziv tabiat bilan. Buning uchun imkoniyatlar kam nogironlarni ish bilan ta'minlash. Yoshlar muntazam ravishda mehnat bozorida kam namoyon bo'lmoqda turli xil ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillarga, shu jumladan ish o'rinlarining etishmasligi, qishloq joylarida ishchi kuchiga talabning pastligi; past ish haqi, past malaka va ko'nikmalar, zaif mehnat bozori ma'lumotlari, past xabardorlik va kichik miqyos faol mehnat bozori dasturlari, yoshlar qarorlarini qabul qilish va ayollarning mehnatdagi ishtiroki bo'yicha madaniy me'yorlar bozor va boshqa omillar. Madaniy stereotiplar tufayli ayollarning mehnatdagi ishtiroki to'sqinlik qilmoqda.

**METODOLOGIK TAHLIL.** Yoshlarning rasmiy ta'lim jarayonida olgan ko'nikmalari ish beruvchilar talablariga javob bermaydi va TKT amalda rivojlanmagan. Ish beruvchilarning yosh xodimlarni ishga olishdan manfaatdorligiga qaramasdan, ular yoshlar o'rtasida ko'nikma va bilimlarning past darajada rivojlanishi bilan bog'liq muammolarga duch kelish,shuningdek, ularning ish boshlashga tayyor emasligi. Shu bilan birga, olmagan yoshlardir.

O'zbekistonda so'nggi yigirma yil ichida jadal iqtisodiy o'sish kuzatildi1. 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab YaIM o'sishi asosan mehnat unumdorligini oshirish hisobiga turdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari ijobiy hissa qo'shdi.

O'zbekistonda aholi jon boshiga qo'shilgan qiymatning o'sishi: xizmat ko'rsatish sohasi umumiy ko'rsatkichning 37 foizini tashkil etdi. Iqtisodiyotda bir ishchiga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymatning o'sishi, undan keyin qishloq xo'jaligi (31 foiz), sanoat va qurilish (21 foiz).

O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulotning (qo‘shilgan qiymat) jami 165 foizga o‘sishi qayd etildi. 1996 yildan 2016 yilgacha bo'lgan davrda aholi jon boshiga, bu yiliga o'rtacha 5 foiz o'sish sur'atiga teng.

Bir ishchiga to'g'ri keladigan umumiy mahsulot (yoki mehnat unumdorligi) bu davrda taxminan 150 foizga oshdi.

Bu davrda aholi jon boshiga qo'shilgan qiymatning o'sishi mahsuldorlikning o'sishi va demografik ko'rsatkichlarga bog'liq bandlik darajasining oshishi bilan emas, balki o'zgarishi. Jami

o'zgarishlarning deyarli barchasi (91 foiz) ni tashkil etadi.

Ushbu davrdagi aholi jon boshiga qo'shilgan qiymat mehnat unumdorligining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, 22 aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning umumiy o'zgarishi foizi demografiyadagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Uchuvchi hududga ko'ra, 2017-2020 yillarda viloyat yalpi ichki mahsuloti (YaHM) 14 foizga oshib, 37,6 trillion so‘mni tashkil etdi. 2021 yilda, Farg‘ona viloyatining milliy yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 6,4 foizni tashkil etdi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI.** Iqtisodiyotning jadal o'sishiga qaramay, ish o'rinlarining yaratilishi mehnatga layoqatli yoshdagi o'sish sur'atlariga mos kelmaydi [2]. Demografik tendentsiyalar mamlakatda mehnatga layoqatli aholi ulushining oshishiga olib keldi [3] 1990-2020-yillarda: Bu davrda mehnatga layoqatli aholining umumiy ulushi aholi 55% dan 66% gacha o'sdi, bu esa mehnat bozoriga bosimni oshirdi. O'rtacha 600 ni tashkil etadi.

2016-2020-yillarda har yili ming kishi ishchi kuchiga kiradi, shu bilan birga ish o'rinlarini yaratishning o'rtacha ko'rsatkichi so'nggi o'n yil ichida yiliga 200 000 ish o'rni yaratilmoqda.

**XULOSA.** Mehnat migratsiyasi yoshlarning mehnat bozoridagi natijalarini shakllantirishda, ayniqsa, tushkunlikda bo‘lib turgan mehnat bozorida muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar bilan fokus-guruh muhokamalari orqali to‘plangan sifatli dalillar shuni ko‘rsatadiki, asosan past maoshli va norasmiy ishdan iborat bo‘lgan mahalliy mehnat sharoitlari ishsiz yoshlarni xalqaro migratsiyani ishlash va munosib maosh olishning deyarli yagona yo‘li deb hisoblashga undaydi. 16 va undan katta yoshdagilarning taxminan 5,5 foizi xalqaro mehnat muhojirlaridir. Mehnat muhojirlarining asosiy qismini 25-34 yoshdagilar tashkil etadi va migrantlarning katta qismini (qariyb 90 foizi) erkaklar tashkil qiladi. Rossiya - O‘zbekistonlik mehnat muhojirlari uchun asosiy manzil. Qozog‘iston umumiy aholi soni va erkaklar uchun ikkinchi joy; uchinchi manzil - Turkiya. Ichki migratsiya darajasi ancha past, chunki Toshkentda to‘lanadigan ish haqlari chet elnikiga solishtirganda pastroq va yashash narxi viloyatlarga qaraganda yuqoriroq.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

1. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum and Systematic Country Diagnostic, forthcoming
2. Growth and Job Creation in Uzbekistan: An In-depth Diagnostic (2018)
3. https://openknowledge.worldbank.org/bitstream/handle/10986/31935/Growth-and-Job-Creation-in-Uzbekistan-A-In-depthDiagnostic.pdf?sequence=1&isAllowed=y

***NURMATOV***
***Bobir Abdusattorovich***
*Farg‘ona davlat universiteti*
*tadqiqotchisi*
*e-mail:*
*bobirnurmatov724@gmail.com*
*ORCID: 0009-0001-6120-7801*

# SAYFIDDIN QUTUZ MEROSINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI VA VATANPARVARLIK QADRIYATLARI TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

**Annotatsiya.** Insoniyat tarixida shunday shaxslar bo‘lgan va borki, ularning faoliyati nafaqat o‘z davrining geosiyosiy muhitiga, balki keyingi avlodlarning dunyoqarashi, ijtimoiy ong va milliy xotirasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

**Kalit so‘zlar.** Istilo, himoya, murakkab, mas’uliyat, safarbar, liderlik, kulminatsiya, mo‘g‘ul, mag‘lubiyat.

# СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ НАСЛЕДИЯ САЙФИДДИНА КУТУЗА И ЕГО МЕСТА В СИСТЕМЕ ПАТРИОТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ

**Аннотация.** В истории человечества были и есть личности, деятельность которых оказывала непосредственное влияние не только на геополитическую обстановку своего времени, но и на мировоззрение, общественное сознание и национальную память последующих поколений.

**Ключевые слова.** Завоевание, оборона, комплекс, ответственность, мобилизация, лидерство, кульминация, монголы, поражение.

# SOCIAL-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF SAYFIDDIN KUTUZ'S HERITAGE AND ITS PLACE IN THE SYSTEM OF PATRIOTIC VALUES

**Abstract.** In the history of mankind, there have been and are such individuals whose activities have directly influenced not only the geopolitical environment of their time, but also the worldview, social consciousness and national memory of subsequent generations.

**Keywords.** Invasion, defense, complex, responsibility, mobilization, leadership, culmination, Mongol, defeat.

**KIRIRSH**

Sayfiddin Qutuz ana shunday tarixiy shaxslardan biridirki, u Misrni mo‘g‘ullar istilosidan himoya qilishdek murakkab va mas’uliyatli vazifani zimmasiga olib, o‘zining liderlik fazilatlari, harbiy-diplomatik iste’dodi va yuksak axloqiy qarashlari bilan nafaqat zamonasida, balki keyingi bosqinchlarda ham kuchli ijtimoiy rezonans uyg‘otgan. Mazkur bobda Sayfiddin Qutuz merosi ijtimoiy-falsafiy tahlil asosida ko‘rib chiqiladi. Avvalo, vatanparvarlikning mohiyati, uning qadriyatlar tizimidagi epistemologik o‘rni, ya’ni bilish va idrok qilish jarayonidagi ahamiyati Qutuz faoliyati orqali tahlil qilinadi. Zero, uning jasorati va fidoyiligi xalq, yurt va din manfaatlarini mutlaq ustun qo‘ygan ijtimoiy-falsafiy pozitsiyaning yorqin namunasidir.

Shuningdek, Qutuz liderligining aksiologik talqini – qadriyatlar haqidagi bilimlar doirasida – tarixiy ong, ijtimoiy xotira va milliy identitet bilan uzviy bog‘liq holda ochib beriladi. Bunday yondashuv Qutuz shaxsiyatini zamonaviy falsafiy va ijtimoiy tafakkur doirasida anglashga imkon beradi. U boshqargan jamiyatda axloqiy barqarorlik, intizom va ijtimoiy birlik tamoyillarining qay darajada muhim bo‘lganini o‘rganish orqali, bugungi davr uchun ham dolzarb xulosalar chiqarish mumkin. Bundan tashqari, Qutuzning harbiy va diplomatik faoliyatida aks etgan ijtimoiy birlik, intizom va axloqiy qat’iyat prinsiplari ijtimoiy-falsafa nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Chunki bu jihatlar jamiyat barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Qutuz faoliyatining tarixiy dalillari asosida bu prinsiplarning amaliy natijalari va ularning hozirgi davr uchun ibratli jihatlari yoritiladi.

**METODOLOGIK ASOSLAR.**

Umuman olganda, Sayfiddin Qutuz merosini ijtimoiy-falsafa nuqtayi nazaridan o‘rganish nafaqat tarixiy xotirani jonlantirish, balki vatanparvarlik qadriyatlarining shakllanishi, jamiyatda ijtimoiy birdamlik, axloqiy meyorlar va yetakchilik madaniyatini chuqur anglashga xizmat qiladi. Shu asosda mazkur bobda Qutuz faoliyatining har bir jihati ijtimoiy-falsafiy tafakkur kontekstida tahlil etiladi.

Vataparvarlik insoniyat ongining qadimiy va uzviy shakllaridan biridir. Bu tushuncha nafaqat ijtimoiy hissiyot yoki siyosiy g‘oya, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, ma’naviy barqarorligi va o‘zligini anglashidagi falsafiy epistemologik asosdir. Vataparvarlikni ijtimoiy-falsafiy

jihatdan tahlil qilganimizda, biz uni milliy ongning shakllanishi, axloqiy dunyoqarashning yuksalishi va epistemologik haqiqatni izlash jarayoni sifatida koʻramiz. Ayniqsa, tarixiy shaxslar faoliyati bu tushunchaning amaliy namunasini ifodalaydi. Sulton Qutuzning qisqa, ammo mazmunli faoliyati buning yorqin ifodasi boʻla oladi. Sulton Qutuz XIII asrda Misrda hukmronlik qilgan va ayni paytda Yaqin Sharqdagi musulmon jamiyatini moʻgʻullar tahdididan asragan tarixiy shaxsdir. Uning nomi ayni damda vataparvarlik, haqiqat va sadoqatning timsoli sifatida tarixiy xotirada saqlanadi.

Vatanparvarlik insoniyat tarixiy ongining eng qadimiy va doimiy mezonlaridan biri boʻlib, u shaxsiy fidoyilik, ijtimoiy birdamlik va tarixiy xotiraning yagona ifodasi sifatida qaraladi. Falsafiy nuqtai nazardan vatanparvarlik bu — insonning oʻz milliy mavjudotini anglash, uni muqaddas deb tan olish va bu yoʻlda aqliy, maʼnaviy, jismoniy jihatdan harakat qilishidir. U shunchaki hissiyot emas, balki ijtimoiy ongning muayyan bosqichida shakllanadigan tafakkur jarayonidir. Bu jarayonni eng yorqin misollardan biri sifatida Memluk sultoni Seyfiddin Qutuz faoliyatini tahlil qilish mumkin.

**TAHLIL**

Qutuz hayoti zamonaviy ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan vatanparvarlikning epistomologik tabiati — yaʼni u qanday shakllanadi, qanday bilimlar orqali ijtimoiy ongda paydo boʻladi va qanday institutlar orqali mustahkamlanadi — kabi savollarga javob izlashda muhim dalildir. Qutuz tarix sahnasiga 13-asrda, Misr xalifaligi eng ogʻir sinovlarga duch kelgan bir davrda chiqqan [4]. Moʻgʻullar tomonidan xalifalik markazi Bagʻdodning vayron qilinishi, xalifa oʻldirilishi va musulmonlarning ijtimoiy-madaniy ruhiyati barbod boʻlishi — bu davrning murakkab fonini tashkil etgan. Aynan shu kontekstda Qutuzning siyosiy-harbiy harakati, ayni vaqtda ijtimoiy-axloqiy uygʻonish harakati sifatida talqin qilinadi.

Qutuzning harbiy gʻalabasi — Ayn Jalutdagi moʻgʻullarga qarshi zafar — bu oddiy strategik muvaffaqiyat emas, balki ijtimoiy ontologik yuksalishdir [3]. U milliy gʻurur, dinga sadoqat va ijtimoiy adolat timsoli sifatida vujudga keldi. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan olganda, Qutuz vatanparvarlikni uch darajada ifoda etgan.

Tarixiy ongni aktual holga keltirdi. U musulmon jamiyatining madaniy xotirasini jonlantirib, uni harakatga keltirishga muvaffaq boʻldi. Bu, Fukoning “diskursiv ong”

nazariyasiga ko‘ra, jamiyat ongidagi quvvatlanayotgan voqelikni ijtimoiy harakatga aylantirish demakdir. Qutuz voqelikni diskursga, diskursni esa mobilizatsiyaga aylantira oldi.

Qadriyatlarni institutlashtirdi. Uning davrida vatanparvarlik nafaqat shaxsiy fidoyilik darajasida, balki davlat siyosati, soliq siyosati, harbiy safarbarlik va diniy legitimatsiya orqali tizimlashtirildi. Masalan, u qozilardan qonuniy fatvo olib, xalqqa soliq yukini og‘irlashtirdi, biroq bu og‘irlik “vatan himoyasi” kabi yuksak maqsadlar orqali asoslantirilgan edi [1].

Memorativ mexanizmlar orqali qadriyatlarni mustahkamladi. Keyingi Mamluk hukmdorlari tomonidan Qutuz siymosi qadrlanib, masjidlar, madrasalar, vaqflar orqali yodga olinib bordi. Bu esa vatanparvarlikni shaxsiy tajriba emas, balki jamiyatga xos bilim va axloqiy mezon sifatida mustahkamladi [2]

**XULOSA**

Qutuz fenomenida falsafa, siyosat, din va tarix bir-biri bilan uyg‘unlashgan. Bu uyg‘unlikda vatanparvarlik — bu hissiy yoki instinktiv javob emas, balki bilimga asoslangan, ijtimoiy ongda shakllangan va tarixiy haqiqatga tayanuvchi amaliy faoliyatdir. U bu qadriyatni epistomologik mustahkamlikka ega fenomen sifatida tarix sahnasiga olib chiqdi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, vatanparvarlik ijtimoiy-falsafiy tushuncha sifatida to‘liq faoliyatni o‘z ichiga oladi: bu — bilish (qayerda yashayotganini tushunish), tan olish (uning qadriyatlarini qabul qilish) va harakat qilish (uni himoya qilish). Qutuz bularning uchalasini ham uyg‘unlashtirdi. U mamlakatni tanidi, xalqni birdamlikka chaqirdi va unga yetakchilik qildi. Qutuz faoliyati bugungi kunda vatanparvarlikni yangicha talqin qilishda misol bo‘la oladi. U bizga o‘rgatadiki, vatanparvarlik — bu qahramonlik emas, balki ongli tanlov, bilimga tayangan harakat va tarixiy mas’uliyatdir. Bu qadriyatni institutlashtirish, xotirada saqlash va ongda jonlantirish esa ijtimoiy falsafa zimmasidagi eng muhim vazifadir.

## ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Ali, H. (2022). Aynicâlût Savaşı: Moğollarni to‘xtatgan jang. APJIR, 6(2), 292–308.
2. Flinterman, W. (2017). The Cult of Qalāwūn: Waqf, Commemoration, and Dynasty. Amsterdam University.
3. Bourdieu, P. (1986). The Forms of Capital. In: Richardson, J. (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education, pp. 241–258.
4. Weber, M. (1922/1978). Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology. University of California Press.

# ALFRAGANUS

ALFRAGANUS UNIVERSITY

Ushbu jurnal Toshkent shahar Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasining «Ommaviy axborot vositasi sifatida faolyatini amalga oshirish»ga № 060125 raqamli guvohnomasi asosida ruxsat etilgan

Nashrga ruxsat berildi 24.07.2023 y. Bichimi 84/60.1/8.
Bosma tabog'I 5.

«ALFRAGANUS UNIVERSITY» nashriyotida tayyorlandi
Muharrir: Xolbekov S.